

**BEMORLAR ORASIDA GIPOFIZ BEZI GARMONLARI DISFUNKSIYASI
NATIJASIDA KELIB CHIQUVCHI HOLATLAR**

Jumaqulova Munisa Olimjon qizi
Boymurodova Barno Abduvali qizi
Abdumurodov Otabek Sirojiddin o'g'li
Daminov Amin Abdivohid o'g'li
Jo'rayev Yusuf Musurmon o'g'li

*Samarqand davlat tibbiyot universitite 4-kurs
2- davolash ishi fakulteti 414- guruh talabalari*

Mavzuni dolzarbligi : Gipofiz – bu ichki gomostazni boshqarish uchun javob beradigan garmonlarni chiqaradigan ichki sekretiya bezi hisoblanib, u endokrin tizimning boshqa bezlar faoliyatini tartibga solish uchun javobgardir. Gipofizning ishlash mehanizmi gipotalamusga bog'liqdir. Gipofiz bezidan sekretiya qilinadigan garmonlardan birining disfunktsiyasi buyrak usti bezidagi patologiyalarni keltirib chiqarishi mumkin. Ularning barchasidan eng yaxshi tanilgani Itsinko-Kushing sindromi. Ushbu patologiya XX- asrning boshlarida, neyroxirurg Harvi Kushing gipofiz bezi faoliyati buzilishi oqibatlarini o'rganish jarayonida aniqladi. Natijalariga ko'ra adrenokortikotrop garmoni sekretiya sinining buzilishi Itsinko- Kushing sindromi kilinik belgilari orqali organizmda metabolizm jarayonlari o'zgarishiga sabab ekanligi haqida malumot bergan. Ushbu sindrom oyoq- qo'llarda zaiflik va suyaklardagi mo'rtlikni keltirib chiqaradi. Sindromning asosiy belgilari: Oysimon yuz, bo'yin va ensa sohasida yog' to'planishi, sindromga hos semizlik (obdaminal sohada semizlik, ingichka oyoqlar hos), qorin, son ko'krak sohalarda qizil sitriyalar, ayollarda gersituizm, erkaklarda sochlarning to'kilishi hosdir. Anatomik jihatdan gipofiz bezi uchta katta qisimga bo'linadi : old yoki adenogipofiz, o'rta yoki oraliq gipofiz, orqa yoki neyrogipofiz. Gipofiz bezining oldingi qismi adenogipofiz deb atalib quyidagi 6 ta garmon sekretiya qilinadi.

Gipofiz bezi oldingi qismi garmonlari:

1. Adrenokortikotrop garmon (AKTG)
2. Tireotrop garmon (TG)
3. Lyutenlovchi garmon (LG)
4. Folikula stimullovchi garmon (FSG)
5. Somototrop garmon (STG)
6. Prolaktin garmon (PRG)

Gipofizning orqa bo'lagi garmonlari:

1. Vozoperosin garmoni
2. Oksitotsin garmoni

I. Adenokartikotrop (AKTG) – gipofizning oldingi qismining bazafil hujayralaridan ishlab chiqariladigan tropik garmon. AKTG ning maksimal sekretsiyasi ertalab 6-8 soat, minimal -18 dan 23 soatgacha kuzatiladi.

AKTG – garmoni sekretsiyasi oshishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklar:

1. AKTG ga bog'liq Itsenko-Kushing kasalligi
2. Addison kasalligi
3. Tug'ma buyrak usti bezining giperplaziyasi

AKTG – garmoni sekretsiyasi pasayishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklar:

1. Ikkilamchi buyrak usti bezi yetishmovchiligi
2. Buyrak usti bezlarining turli xil o'smalari
3. Gipopituitarizm

II. Tireotrop garmon (TTG) – tiroidni stimulyatsiya qiluvchi garmon bo'lib tiroid garmonlarni boshqarish uchun javobgardir. Tireotrop garmonning asosiy tasiri: Qalqonsimon bezlar tomonidan tiroksin va triyodtironin sekretsiyasini kuchaytiradi, intrafolikulyar tiroglobulin proteolizini kuchaytiradi, yod nasosining faolligini oshiradi, tirozinning yodlanishini oshiradi, tiroid hujayralarining hajmi va secretor funksiyasini oshiradi.

TTG – garmoni sekretsiyasi oshishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklar:

1. Birlamchi gipoterioz
2. Subkilinik gipoterioz
3. O'tkir osti trioidit
4. Qalqonsimon bez raki

TTG – garmoni sekretsiyasi pasayishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklar:

1. Birlamchi giperterioz
2. Yatrogen giperterioz
3. Homilador ayollarning giperteriozi
4. Gipofiz bezining o'smasi

III. Lyutenlovchi garmon (LG) – ovulyatsiya va sariq tananing shakllanishiga, steroidogenezni tartibga solishga olib keladi.

LG- garmoni sekretsiyasi oshishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklar:

1. Jinsiy bezlarining birlamchi disfunktsiyasi
2. tuxumdonning polikistoz sindromi
3. menopauza
4. Jinsiy xromosomalarning irsiy kasalliklari

LG- garmoni sekretsiyasi pasayishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklar:

1. Jinsiy bezlarning ikkilamchi yetishmovchiligi yoki o'smalari
2. gipotalamus va gipofiz bezining disfunktsiyasi

IV. Follikulula stimullovchi garmon (FSG) – tuxumdonlardagi follikulalarning yetilishiga yordam beradi, endometriyal poliferatsiyani rag'batlantiradi, steroidogenezni tartibga soladi.

FSG – garmoni sekretsiyasi oshishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklar:

1. tuxumdonlarning birlamchi yetishmovchiligi

FSG – garmoni sekretsiyasi pasayishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklar:

1. Shixan sindromi

2. tuxumdonning polikistik sindromi

V. Somatotrop garmon (STG) – hujayralardagi oqsil sintezining, glyukoza hosil bo'lishining va yog'larning parchalanishining, tananing o'sishining stimulyatoridir.

STG – garmoni sekretsiyasi oshishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklar:

1. Gipofizar gigantizm

2. Gipofizning asidofil adenomasi

3. Akromegaliya

STG – garmoni sekretsiyasi pasayishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklar:

1. Gipofizar nanizm

2. Gipopituitarizm

VI. Prolaktin garmoni (PRG) – laktotrof hujayralarida sintezlanadi (10-25%)

Xomiladorlik vaqtida uning miqdori 70% gacha ortadi va gipofiz 2 baravar kattalashadi.

PRG – garmoni sekretsiyasi oshishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklar:

Galaktoreya amenoreya sindromi

PRG – garmoni sekretsiyasi pasayishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklar:

Shixan sindromi

Gipofiz bezining orqa bo'lagi neyrogipofiz deb atalib gipotalamusda sekretsiya mahsuloti bo'lgan 2 ta garmon depo sifatida saqlanadi. Gipofiz bezi orqa bo'lagi garmonlariga quyidagilar kiradi:

1. Vozopressin (antidiuretik garmon) ADG - siydik hosil bo'lishini sustlashtiradi. Vozopressin garmon yetishmaganda qandsiz diabet paydo bo'ladi. Bu distal burama kanalchalarda va yig'uvchi naylarda suv reabsorbsiyasini boshqarishda qatnashadi.

2. Oksitosin garmon – bachadon muskullariga tasir qilib qisqarishida qatnashadi. Oksitosin sekretsiyasi oshganda: erta tug'ish, siydik ajratishini keskin kamayishi.

Oksitosin sekretsiyasi pasayganda : homilaning shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan tabiiy tug'ilishdagi qiyinchilik, jinsiy hayotdagi muammolar.

Maqsad: Bemorlar orasida garmonalniy kasalliklarni aniqlash va keltirib chiqargan sabablarni bartaraf etish.

Xulosa: Qilib aytganda gipofiz bezidan sekretsiya qilinadigan garmonlar organizmdagi o'sish, qon bosimini stabil taminlash, homladorlik, tug'ruq jarayonida, laktatsiya jarayonida, jinsiy organlar rivojlanishida, qalqonsimon bez funksiyasini taminlashda, rearbsorbsiyani boshqarish orqali suv muvozanati taminlash jarayonlarini boshqarishda yordam beradi. Bu funksiyalarni normal kechishi uchun sog'lom turmush tarziga etibor berish, homladorlik davrida sikrining tekshuruvidan o'tish, ovqatlanish ratsioniga alohida etibor berish, aholi orasida yaqin qarindoshlar oila qurishida yuzaga

kelishi mumkin bo'lgan endokrin kasalliklarni oldini olish uchun tushuntirish ishlarni olib borishni tashkil etish, gipofiz bezi garmonlari yetishmasligi yoki sekretsiasining oshishi natijasida kuzatiladigan kasalliklarni erta aniqlash endokrin kasalliklar kuzatilishini kamayishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. B.X. Shagzatova Endokrinologiya darslik
2. S.I. Ismoilov Endokrinologiya darslik
3. Najmiddinova Endokrinologiya qo'llanma